



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

odam ma'lum fazilatlarga, yutuqlarga ega bo'lishi, jamiyatda muayyan o'rinni egallagan bo'lishi kerak.

“Ehtirom” leksemasi eng yuqori darajadagi ijobiy munosabatni bildiradi. Ehtirom – bu yuksak hurmat, chuqur izzat va ulug'lash tuyg'usi. U nafaqat qadrlash va e'tiborni, balki hayrat, ta'zim va hurmatni ham o'z ichiga oladi. Ehtiromga sazovor bo'lish uchun odam nafaqat muayyan fazilatlarga ega bo'lishi, balki o'zining yuksak axloqiy va ma'naviy qiyofasi bilan boshqalarga ta'sir o'tkazishi kerak.

Sinonimik qatordagi leksemalar denotativ va konnotativ semalariga ko'ra *hurmat* leksemasi bosh so'z sifatida tanlab olinadi. Chunki *hurmat* leksemasi o'z qatoridagi leksemalar orasida eng keng qo'llanadigan va barcha uslublar uchun umumiy xoslangan leksemdir. Ko'pincha bu so'z *izzat* so'zi bilan juft holda qo'llanadi. Bu esa sinonimik qator nafaqat ma'naviy nuqtayi nazaridan, balki uslubiy jihatdan farqlanishini ham ko'rsatadi. Bu esa matnlarda, birikmalarda qo'llanishida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, *hurmat* va *izzat* so'zlarining birikuvchanlik xususiyatlari va nutqiy qurshovi *ehtirom* so'zinikidan ayrim hollarda farqlanadi. *Hurmat* va *izzat* so'zlari qilmoq, *ko'rsatmoq* kabi so'zlar bilan munosabatga kirishsa, *ehtirom* so'zi esa *ko'rsatmoq* fe'li bilan munosabatga kirishib, ko'proq yozma uslubga xosligi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagi misollardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, “ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasidagi ayrim sinonim so'zlar semasida ham graduonimik munosabat ifodalanadi. Bu esa sinonimik munosabat chegaralarini belgilashda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Рахмонов Ф. (2018). *Ўзбек тилида лугавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати*. Фарғона.

(O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. 2022. 447-bet). (2022).

(O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. 2022. 584-bet). (2022). Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.

O'zbek tilining izohli lug'ati. (2022). Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.

Бозоров, О. (1997). *Ўзбек тилида даражаланиш*. Тошкент.

Орифжонова, Ш. (1990). *Ўзбек тилида лугавий градуонимия*. Тошкент.

INTEROTSEPTIV VA PROPRIOTSEPTIV SEZGILARGA FIZIOLOGIK VA LINGVISTIK TAVSIF

Feruza NAMOZOVA*

Annotatsiya

Maqolada tilshunoslikning lingvosensorika yoʻnalishiga oid interotseptiv va propriotseptiv sezgilar haqida gap boradi. Interotseptiv hamda propriotseptiv sezgilarning oʻziga xos fiziologik, lingvistik xususiyati, ularning farqli va oʻxshash tomonlari misollar orqali tahlil qilingan. Bilish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshadi, uning dastlabki qismi sezgilar yordamida hosil boʻladi. Sezgilar fiziologik jihatdan inson hayoti uchun, tananing ichki va tashqi barqarorligini taʼminlash uchun muhim ahamiyatga ega, shuningdek, sezgi tajribalarini ifodalash, ularni mantiqiy va ijtimoiy kontekstga solish kabi vazifalar bilan tilshunoslik hugʻullanishi yoritib berilgan. Oʻzbek tilshunosligida ekstrotseptiv sezgilarga oid koʻplab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo interotseptiv, propriotseptiv sezgilar oʻrganilishi lozim dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan davrda ularni ilmiy tadqiq qilish, sensor lugʻat yaratish ustida ishlash talab etiladi.

Kalit soʻzlar: sensor tizimi, ekstrotseptiv, interotseptiv, propriotseptiv, fiziologiya, markaziy nerv tizimi, retseptor, gomeostatik markaz, ichki organlar.

Interoceptive and Proprioceptive Senses Physiological and Linguistic Description

Abstract

The article discusses interoceptive and proprioceptive sensations related to the linguosensory direction of linguistics. The specific physiological and linguistic characteristics of interoceptive and proprioceptive sensations, their differences and similarities are analyzed through examples. The process of cognition occurs gradually, the initial part of which is formed with the help of sensations. Sensations are physiologically important for human life, for ensuring the internal and external stability of the body, and the task of linguistics is also highlighted, such as expressing sensory experiences, placing them in a logical and social context. A lot of scientific research has been carried out in Uzbek linguistics on extroceptive sensations. However, interoceptive and proprioceptive sensations remain one of the urgent issues that need to be studied. In an era of rapid development, their scientific research and work on creating a sensory dictionary are required.

Keywords: sensory system, extroceptive, interoceptive, proprioceptive, physiology, central nervous system, receptor, homeostatic center, internal organs.

* Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti, namozovaferuza79@gmail.com

Inson organizmi atrof-muhit bilan uzviy aloqada bo'lib, o'z holatini doimiy ravishda nazorat qilib boradi. Buning uchun markaziy nerv tizimi turli xil sezgilar orqali tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarni qabul qiladi. Bunda ekstrotseptiv, interotseptiv va propriotseptiv sezgilar muhim o'rin tutadi. Tilshunoslikda ekstrotseptiv sezgilar (ko'rish, eshitish, ta'm va hid bilish, hamda teri orqali sezish) eng ko'p o'rganilgan sensor guruhi hisoblanadi. Biroq interotseptiv va propriotseptiv sezgilar haqida bunday deb bo'lmaydi. Ularning to'g'ri ishlashi organizmning muvozanatini, koordinatsiyasini va ichki muhit barqarorligini ta'minlaydi.

Interotseptiv sezgilar ichki muhitdan keladigan ma'lumotlarni qabul qiluvchi sezgi turi bo'lib, ular ichki organlar, qon tomirlari, mushaklar va bo'g'imlardagi o'zgarishlarni sezadi. Bu sezgilar orqali yurak urishi, qon bosimi, nafas olish darajasi, ichki organlarning holati markaziy nerv tizimiga yetkaziladi. Interotseptiv sezgilar, asosan, visseral – ichki organ retseptorlari tomonidan olinadi. Ularning ifodalanishi organizmning ichki muhitidagi barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. “Zamonaviy gumanitar fanlarda **interotseptiv sezgilar** – bu organizm ichki muhitidan keladigan signallar yig'indisi bo'lib, ularning vazifasi ichki a'zolar va tana qismlarining holatini ifodalashdir” (Polyakov, 2007, 496-b). Masalan, yurak faoliyatidagi salbiy va ijobiy holatlar, nafas olish va chiqarish jarayonlari, ochlik, chanqoqlik, to'qlik kabi oshqozon-ichak tizimi funksiyalari shular jumlasidandir. Quyidagi matnlarda tananing ichki qismida sodir bo'lgan o'zgarishlar qay tarzda bayon etilishini kuzatamiz.

Orqa eshikni ochib, endi ichkarilayman deb turuvdim, kostyumim baridan kimdir tortganday bo'ldi. ***Yuragim shuv etdi.*** (Q.Norqobil. “Vatan nima?”) Gulduros qarsaklar zabtidan havolanib ucharkan pastda, tebranib turgan odamlar to'ldini ichida, unga o'qrayib qarab turgan bir juft “Ko'z” ni ko'rdi. ***A'zoyi badani jimirlab ketdi,*** so'ng gupullab yerga quladi. (Q.Norqobil. “Bu hayot teatr”) O'lim changalida ***joni bo'g'ziga tiqilib, jontalash-u havotalash bo'lib*** yotgan damlarni esladi. (Q.Norqobil. “Pandemiya”) Tushlik ham qilmadi, ***ko'ngli behuzur bo'laverdi,*** ishidan javob olib, uyiga keldi. (F.Salxodjayeva. “Huzur”) Misollarda keltirilgan ***yuragim shuv etdi, a'zoyi badani jimirlab ketdi, joni bo'g'ziga tiqilib, jontalash-u havotalash bo'lib, ko'ngli behuzur bo'laverdi*** kabi birliklar shaxsning interotseptiv holatni ifodalagan.

Inson o'z tanasining ichki holatini, undagi o'zgarishlarni ziyraklik bilan seza olsa, ularni to'g'ri ifodalay olsa, bu shaxsning jismoniy va ruhiy ahvolining sog'lom bo'lishini ta'minlashda yordam beradi. “Psixologiya fanida mazkur sezgilar to'la o'rganilmaganligi sababli u “noma'lum hislar” deb atalgan. Interotseptiv sezgilar, asosan, ichki organlarning xastaliklarida vujudaga keluvchi holatlarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etadi” (Xaydarov, Xalilova, 2010, 135-b.).

Propriozeptiv sezgilar organizmning harakat va pozitsiyasini sezish bilan bog'liq. Ular mushaklar, bo'g'imlar va paylardagi retseptorlardan keladigan ma'lumotlarni qabul qiladi. Propriozeptiv sezgilar yordamida odam o'z tanasining bo'g'imlari qaysi holatda ekanini, mushaklarning qanchalik cho'zilgan yoki qisqarganini biladi. Bu sezgilar harakatlarni muvofiqlashtirish va muvozanatni saqlash uchun juda muhimdir. "Propriozeptiv signal markaziy nerv tizimga yetib borgach, u harakatni sozlash va koordinatsiyani ta'minlashga yordam beradi". (Nuritdinov, 2005. 130-b.). K.MakLarenning tushuntirishicha, propriozeptiv sistema odamga ma'lum muayyan makondagi holatni bilish va uni his qilish, muvozanatni saqlash, harakat qilish, o'z tanasining chegaralarini, shuningdek, atrof-olamdagi chegarasini belgilash imkonini beradi. (McLaren, 2010, 432-b.)

Mashinani yo'l chetida to'xtadim. **Oyoq-qo'lim bo'shashib ketdi.** (Q.Norqobil. "Samodil") To'ychiyev **gandiraklab qoldi.** Mulzam tortdi. Yuziga qizillik yugurdi. (Q.Norqobil. "To'ychiyevni dovdiratgan baxt") Tuyqus **muvozanatini yo'qotib,** devor ustidan "shilq" etib chaqirtikan ustiga quladi. (Q.Norqobil. "Yangi yil kechasil") So'nggi kilometrda **qadamlar og'irlashdi.** Lekin miyada yengillik paydo bo'ldi – go'yo butun og'irliklar, ortiqcha o'y-xayollar, shaharning miyada o'tirib qolgan shovqin-suroni shu sahroda qolib ketgandek. (Gazetadan) Matnlardagi **oyoq-qo'lim bo'shashib ketdi, gandiraklab qoldi, muvozanatini yo'qotib, qadamlar og'irlashdi** birliklari propriozeptiv sezgilarni ifodalashga xizmat qilgan. Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, propriozeptiv sezgi tana yoki undagi ba'zi qismlarning harakatlanishida, harakat a'zolari holatini baholay olishda eng zarur sensor tizimidir.

Interotseptiv va propriozeptiv sezgilar o'z kelib chiqish manbayi va vazifalariga ko'ra farqlanadi. Interotseptiv sezgilar, asosan, ichki organlar va ichki muhit o'zgarishlarini ifodalaydi, propriozeptiv sezgilar esa mushaklar va bo'g'imlarning holatini sezadi. Har ikkala sezgi turi ham o'ziga xos retseptorlarga ega bo'lib, ularning nerv tolalari orqali markaziy nerv tizimga signal yuboriladi.

Shuningdek, ifodalanishning neyrofiziologik asosida bu sezgilar markaziy nerv tizimning turli darajalarida qayta ishlanadi. Propriozeptiv sezgilar asosan miya po'stlog'i va bosh miya sohalarida qayta ishlanib, motor faoliyatni boshqarishda ishtirok etadi. Interotseptiv sezgilar esa limbik tizim va gomeostatik markazlarga signal yuboradi, bu esa ichki muhitni muvozanatda ushlab turishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, interotseptiv va propriozeptiv sezgilar organizmning ichki va tashqi muhitini doimiy nazorat qiluvchi sezgi tizimlari bo'lib, ular markaziy nerv tizim uchun muhim ma'lumotlar manbayi hisoblanadi. Ushbu sezgilar organizmning normal funksiyasini ta'minlash, harakatlarni muvofiqlashtirish va ichki muhitni barqarorlashtirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois ularning fiziologiyasi va patologiyasi bo'yicha tadqiqotlar nevrologiya, biologiya va tibbiyot sohalarida katta ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlarning tilshunoslikda ham olib borilishi maqsadga

muvofiq. Chunki sensori tushunish, holatni bayon qilish kabi masalalar tilshunoslikning obyekti hisoblanadi. Sezgi tajribalarini ifodalash, ularni mantiqiy va ijtimoiy kontekstga solish — bularning bari tilning vazifasi.

Foydalanilgan adabiyotlar

McLaren K. (2010). *The language of emotions: What your feelings are trying to tell you*. Toronto: Sounds True, Inc.

Nuritdinov E. (2005). *Odam fiziologiyasi*. Toshkent: Aloqachi.

Xaydarov F., Xalilova N. (2010). *Umumiy psixologiya*. Toshkent.

Поляков, С. Э. (2007). *Мифы и реальность современной психологии*. Москва: Эдиториал.